

TILIMIZ HAM HIMOYAGA MUHTOJ

Ismoil Haydarov,
JDPI, O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.f.d (PhD) Dilnavoz Salimova

Har bir millatning mavjudligini, yashayotganini namoyon etadigan omillar bo‘ladi. Til ana shunday mavjudlik hodisasidir. Til shunchaki so‘zlashish vositasi emas. Til millat ma‘naviyati va madaniyatining toshoynasidir. Modomiki, millatning o‘z tili bor ekan, demak, uning dunyoga aytar so‘zi ham bor.

Shu tiriklik dunyosining bir qismi o‘laroq asrlar osha jahonga o‘z so‘zimizni aytib keldik. U uzoq asrlar naridan goh O‘rxun-Enasoy bitiklari, goh “Devonu lug‘otit turk”, goh “Qutadg‘u bilig” bo‘lib jaranglab turibdi. Chunki bu tilni yo‘l-yo‘lakay ne-ne ulug‘ zotlar tengsiz zakosi va fidoyiligi bilan asrab keldilar, sayqalladilar. Zero, Vatanning chegaralari qay darajada himoyaga muhtoj bo‘lsa, uning ma‘naviy boyliklari ham shu qadar himoyaga muhtojdir. Shu ma‘noda, milliy tilimiz qarshisida har doim mas‘uliyatli bo‘lishga majburdirmiz ham.

Ona tilim, sen borsan, shaksiz
Bulbul kuyin she’rga solaman.
Sen yo‘qolgan kuning shubhasiz,
Men ham to‘ti bo‘lib qolaman...

Ushbu she’r yozilgan davrda (1965) ona tili haqida she’r yozish, yoki davlat idoralarida o‘zbekcha gapirish boshni kundaga qo‘yish bilan barobar edi. She’r muallifi Abdulla Oripov: “Sakkiz qatorlik shu she’r boshimga sakkizta bomba bo‘lib tushishini tush ko‘ribmanmi? Hozirgi yoshlar ona tilimizga Davlat tili maqomini berish haqidagi qonunni “hatto” uddalab bajara olishmayapti. U paytlarda-chi?...”, – degan edi [3].

O‘z tilini eplab gapira olmayotgan ko‘pgina yoshlarimizga qanday qilib, yaqin o‘tmishdagi mutafakkir bobolarimiz: Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdirashidxonov, Abdulla Qodiriy yoki mana shunday “bomba”larga bardosh bergan Abdulla Oripovdek xalqparvar kishilar yetishib chiqishiga umid bog‘laymiz? Hozirgi kunda biz go‘yoki to‘ti holiga tushayotgandekmiz. Xuddi

inini topolmagan tulkiday o‘zbek, rus, ingliz tili o‘rtasida gir-gir aylanyapmiz-u, qaysi biri bizning “inimiz” ekanligini, o‘zligimiz ekanligini angalayolmayapmiz.

Milliy tilimiz jozibasi, imkoniyatlari va muammolari haqida gapirish uchun 21-oktyabrni kutish shart emas. Modomiki, u bizning ziynatimiz ko‘zgusi, ruhimiz tarjimoni, tarbiyamiz hosilasi ekan, unda unga hayot-mamot masalasi sifatida qarashga o‘rganishimiz lozim. Ulug‘larimiz bu haqiqatni hech qachon unutmaganlar. Zotan, Farg‘onalik jadid Ashurali Zohiriy “Ona tili” maqolasida shunday fikrlarni bildiradi: “Bizning ham xoh ulamo va mudarrislarimiz, xoh yosh unsurlarimiz bo‘lsunlar, bu muqaddas ona tilimizni tiriltirmoqlari anda tursin, balki yo‘qotmoqlikka sabab bo‘lurlar va ham bo‘lib turibdurlar. Na uchunki, ulamolarimizdan biri biror yerga xat yoki birovgga bergan narsasini xotira daftariga yozsa, ona tilini qo‘yib fors tilida yozadurlar. Yosh o‘smirlarimiz bo‘lsalar o‘z yerliklaridan birini ziyofatga choqurib xat yozsalar ham, usmonlicha, yoki totorcha yozadurlar; shoyadki, ona tilga muhabbat va islohi onlardin bo‘lur erdi...”[2]

Zohiriyning bu fikrlariga uyg‘un gaplarni Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida ham o‘qish mumkin. “Biz, turkistonliklar milliy tilni saqlamak bir tarafda tursun, kundan kun unutmak va yo‘qotmakdadurmiz. Tilimizning yarmiga arabiy, forsiy ulangani kamlik qilub, bir chetiga rus tilini ham yopishtirmakdadurmiz. Durust, bizlarga hukumatimiz bo‘lg‘on rus lisonini bilmak hayot va saodatimiz uchun osh va non kabi keraklik narsadur. Lekin o‘z yerinda ishlatmak va so‘zlamak lozimdur”, deya kuyinib yozadi ulug‘ ma‘rifatparvar. Uning nazdida “milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur” [1].

Taassufki, bir, bir yarim asr oldingi muammo hamon bizni bezabunlik sari yetaklamoqda, hamon bir to‘xtamga kelolmay, hamon til masalasida arosatda yashab kelmoqdamiz. Xalqimizda “til bilgan el biladi”, degan naql bor. Lekin o‘zining tilini bilmasdan turib el bilishning qanday nafi bor? O‘tmishi, tarixi, o‘zligini anglamay turib kishi el bilishi yo el bo‘lishi mumkinmi? Yana bir achinarli holat, so‘nggi paytlarda e‘tibor qilyapsizmi, ko‘cha-ko‘yda ajnabiy so‘zlar “izg‘ib” qoldi. Asosan shahar joylarda savdo shoxobchalari, bino-inshootlar, ko‘chalardagi afisha-yu bannerlar asosan xorijiy nom bilan atalgan.

“Nega bizda reklama bannerlarida boshqa tilda yoziladi? Chunki bu o‘sha odam uchun yoziladi. Demakki, bizni, o‘zbekni hurmat qilmaydi. U ingliz, italyan yoki rusni hurmat qilishi mumkin, lekin o‘zbekni emas”,– degan edi Xalqaro press klubning o‘zbek tili muammolariga bag‘ishlangan sessiyasida Qozoqboy Yo‘ldoshev [5]. Ayniqsa, bizning yuzimiz, ko‘zimiz bo‘lgan poytaxtimiz Toshkent ko‘chalari ana shunday nomlarga to‘la. Nahot bu tadbirkorlik ob‘ektini o‘zga tilda nomlashi, go‘yoki tezroq tanilish, rivojlanish, ko‘proq xaridorni o‘ziga jalb qilishda muhim rol o‘ynasa. O‘zbek to‘yxonalarining nomini o‘qing: “Versal”, “Firidays”, “Ellegant”, “Verona”. Bu ham mayli, poytaxtimizning yuzi sifatida qad rostlayotgan “Tashkent City” xalqaro biznes markazi. Savol: nega u “Tashkent City” deb nomlanishi kerak? Xalqarolik darajasini albatta “City” so‘zi belgilaydimi? Bu mezonni kim ishlab chiqqan? Vatanparvarligimiz tutib, shu mezonni buzsak-chi? Xorijdan kelgan tadbirkor kirmay qaytib ketadimi? “City” so‘zining o‘zbekcha muqobili yo‘qmi? Misol uchun, “Toshkentsaroy” yoki “Shoshsaroy” bo‘lsa, kim nima deydi?! Bir paytlar yurtimizda yuzlab karvonsaroylar bo‘lgan. Mag‘ribu mashriqdan kelgan savdogarlar Karvonsaroylarda jam bo‘lishgan. Karvonsaroylar turli mamlakatlardan kelgan savdogarlar uchun nafaqat qo‘ningoh, balki informatsion markaz vazifasini ham o‘tagan.

Axir joy nomlari milliy, tarixiy, jo‘g‘rofiy ahamiyatga ega bo‘lishi kerak emasmi? Ular milliy mentalitetimizga mos kelishi, o‘z so‘zlarimiz bo‘lishi lozim emasmi? O‘ylaymizki, o‘zbekcha nom qo‘yish kelayotgan foydaning qisqarishi yoki ko‘rayotgan daromadning kamayishiga mutlaqo ta’siri va bog‘liqlik joyi yo‘q, ayrim kishilar shunday o‘ylaydi va tasavvur qilishadi, xolos.

Keyingi masala, tilimizni nafaqat o‘zimiz, balki qonunlarimiz ham himoya qilishi kerak, deb hisoblaymiz. Darhaqiqat, “Til to‘g‘risida”gi Qonunni haligacha hayotimizga to‘liq joriy eta olmayapmiz. Masalan, har qanday Qonunning bajarilishini davlat nazorat qilmas ekan, u qog‘ozdan yerga tushmaydi. Chunki dunyoda neki muqaddas bo‘lsa, u himoyaga muhtoj. Zero, til – milliy manfaat. Til

– millatning borligiga dalil. Shunday ekan, u shu davlatning sarhadlari singari qo‘riqlanishi, muhofaza etilishi lozim.

Bir odam faqat noto‘g‘ri ish qilaversa, bora-bora to‘g‘ri bilan noto‘g‘ri ishning farqiga bormay qoladi. Endi u noto‘g‘ri ish qilganda zarracha ham o‘ylanmaydi, xuddi to‘g‘ri ish qilayotgandek davom etaveradi. Bugun, afsuski, butun jamiyatimiz shunday bo‘lib qoldi. Bir zamonlar odamlar imlo xatosini gazeta-jurnallarga qarab to‘g‘rilab olardi. O‘quv darsliklaridan imloviy xato izlash fojidek tuyular edi. Ko‘pchilik, ayniqsa yoshlarimiz nafaqat ta‘lim, balki tarbiyani OAVga qarab andoza oladi. Bugun ular bu talabga javob beradimi? Bugun mamlakatimiz yoshlarining aksariyati tomosha qiladigan birgina “Zo‘r TV” telekanalini olaylik. Bu kanal dasturlarining nomlariga bir e‘tibor qiling: “Aristokratlar”, “Time of”, “Real xit”, “Garderoob”, “Kinotime”, “Indigo”, “Cover up” va bu ro‘yxatni yana davom ettirish mumkin.

O‘zbekistonda, o‘zbek tilida faoliyat olib boradigan telekanalning dasturlari ajnabiy nomdagi, ajnabiy ruhdagi shu kabi dasturlar asrlar davomida millat ruhi bilan qorishib ketgan adabiy tilimizni buzib, bo‘laklab tashlamayaptimi? “O‘zingdan chiqqan baloga – qayga borasan davoga?” deb bejizga aytishmagan. Aslida chetdan emas, o‘zimizni o‘zimiz, ichimizdan kemirayotgandekmiz...

Fikrlarimizga xulosa qilib aytish mumkinki, tom ma‘noda tilimiz bugun himoyaga muhtoj. Toki biz o‘zimizni, o‘zligimizni, o‘tmishimizni his etmas ekanmiz, aytilgan muammolar botqog‘ida yashayveramiz. Zotan, bu shaxslar, hukumat va jamiyat masalasi ekan, barcha buni teng anglamaguncha, ming afsuski, eski hammom – eski tosligicha qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Авлоний Абдулла. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ.- Тошкент:2013.
2. Зоҳирий Ашурали. Она тили – [www. Ziyo.net](http://www.Ziyo.net).
3. Орипов Абдулла. Сайланма. Шеърлар, дostonлар. – Тошкент: F. Ғулом МК, 2012.
4. O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili haqida Qonuni (Yangi tahriri). – 1995-yil 21-dekabr, 167-I-son.
5. Ёўлдошев Қ. Халқаро пресс-клуб. -2019. www.Ziyounet.

